XALQ DEPUTATLARI BO’KA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-iyul VI-95-72-10-137-K/24 Bo’ka tumani

Loyiha

Bo‘ka tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 14-maydagi 79-10-137-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Toshkent viloyati Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar va qishloqlarining umumiy perimetri 424598 metr, umumiy maydoni 59134,14 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Bo‘ka shahri umumiy perimetri 14488 metr, umumiy maydoni 586,36 gektar;

Chig‘atoy qishlog'i umumiy perimetri 35560 metr, umumiy maydoni 5051,09 gektar;

Iftixor qishlog‘i umumiy perimetri 67959 metr, umumiy maydoni 12230,56 gektar;

Ko‘korol qishlog‘i umumiy perimetri 59436 metr, umumiy maydoni 9614,71 gektar;

Namuna qishlog‘i umumiy perimetri 58857 metr, umumiy maydoni 8850,59 gektar;

Qoraqo‘yli qishlog‘i umumiy perimetri 48027 metr, umumiy maydoni 5341,55 gektar;

Qo‘shtepa qishlog‘i umumiy perimetri 45886 metr, umumiy maydoni 5627,41 gektar;

Ravot qishlog‘i umumiy perimetri 45513 metr, umumiy maydoni 6138,14 gektar;

Turon qishlog‘i umumiy perimetri 48872 metr, umumiy maydoni 5693,73 gektar.

Bo‘ka tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar

chizig‘ining yozuvli matni tavsifidajoyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Bo‘ka tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar, fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Bo‘ka tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining Bo‘ka tumani filiali rahbari Sh.Israilovning Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Bo‘ka tumanidagi shahar va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruhining 2024-yil 14-iyundagi 01-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Xalq deputatlari Bo‘ka tumani Kengashining 2023-yil 3-apreldagi «Bo‘ka tuman hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash to‘g‘risida»gi qaroriga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritilsin.
4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (R.Qosimov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.
5. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashidan so‘ralsin.
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha” doimiy komissiyasi (S.Fozilov) zimmasiga yuklatilsin.
7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Kengash raisi



BEGMATOV
BAXTIYOR
PAXRIDDINOVICH


Xalq deputatlari Bo’ka tumani
Kengashining
2024-yil 15-iyuldagi
VI-95-72-10-137-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Bo‘ka shahri	14488	586,36
2	Chig‘atoy qishlog‘i	35560	5051,09
3	Iftixor qishlog‘i	67959	12230,56
4	Ko‘korol qishlog‘i	59436	9614,71
5	Namuna qishlog‘i	58857	8850,59
6	Qoraqo‘yli qishlog‘i	48027	5341,55
7	Qo‘shtepa qishlog‘i	45886	5627,41
8	Ravot qishlog‘i	45513	6138,14
9	Turon qishlog‘i	48872	5693,73
	Jami	**424598**	**59134,14**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman Kengashining
2024 yil “___” _____
_____-sonli qaroriga 2-ilova

Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi



Xalq deputatlari Bo’ka tumani
Kengashining
2024-yil 15-iyuldagi
VI-95-72-10-137-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Bo‘ka tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

